

## ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA BACHADON BO'YNI SARATON

**Xolmurodova D.Q**

**Hasanova M.S**

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti.*

Ishning maqsadi: Abu Ali Ibn Sino ta'limotlariga asoslangan holda bachadon bo'yni saratonini ayollar o'rtasida erta aniqlash orqali oldini olish .

Dolzarbligi: Dunyo bo'yicha yiliga miliondan ortiq ayollar bachadon bo'yni saratoni oqibatida vafot etadi. Bunga sabab chekish, jinsiy hayotni erta yoshdan boshlash, kam immunitet tizimi yoki oilada bachadon bo'yni saratoni bo'lganlar. Shuning uchun biz ayollarda ginekologik tekshiruvlarni va smear testlarini yo'lga qo'yishimiz kerak.

Tadqiqot natijalari: Biz Samarqand davlat tibbiyot Universiteti tibbiy kimyo kafedrasida bilan Samarqand viloyati Onkologiya markaziga bordik. U yerda 42 - 43 yoshlar atrofidagi ayolda kolposkopiya tekshiruvi natijasida (7,5-40-martagacha kattalashtirilganda) birinchi bosqich bachadon bo'yni saratoni borligi aniqlandi. Birinchi darajaga ko'ra, o'sma bachadon bo'yniga invaziya qilgan, ammo uning tanasiga o'tmagan. Shu sababli bemorga birinchi darajali kimyoterapiyadan so'ng paklitaksel preparati qo'llanildi. Preparat eritilgandan keyin faqat vena ichiga tomchilatib kiritish uchun mo'ljallangan. Paklitakselni sisplatin bilan kombinatsiyalangan holda qo'llash tavsiya etiladi.

Abu Ali Ibn Sino saraton kasalligi haqida o'z fikrini yuritgan. U eng xavfli shishlardan biri deb, saratonni ko'rsatgan. Uni sovuq shish, deb atagan. Olimning yozishicha, bu ham umumiy kasalliklardan biridir. Ibn Sino bu shish safro moddasining qora o'tga aylangan qismdan paydo bo'ladi, deb xatoga yo'l qo'ygan. Saratonni davolash uchun Ibn Sino sovituvchi va ho'llovchi moddalarni tavsiya etgan. U boshlanayotgan saratonni yaraga aylantirmay o'z joyida to'xtatib qolish mumkin, deb o'ylagan. Uni operatsiya usuli bilan kesib olishni ham ko'rsatgan. Bunda operatsiya juda ehtiyotlik bilan amalga oshirilishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Saraton o'smasini butunlayin hamma ildizlari bilan chuqur kesib olish kerak, aks holda uning qolgan qismidan yana saraton o'sib chiqishi mumkinligini ta'kidlagan.

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki, bachadon bo'yni saratoni erta aniqlanganda davolanilishi mumkin bo'lgan saraton turi hisoblanadi. Shuning uchun saraton xavfini muntazam ginekologik tekshiruvlar va smear testlar bilan kamaytirish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yusupova S. S., Kholmurodova D. K., Kiyamova D. S. Vexibia Alopecroides-How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine //Global Scientific Review. – 2023. – T. 20. – С. 25-30.
2. Vexibia Alopecroides - How to New Source for the Synthesis of Physiologically Active Substances Used in Medicine. Global Scientific Review 2023 Volume 20, October 2023.
3. Выделение и установление строения физиологически активных препаратов из растения семейства fabaceae. Илмий ахборотнома 2022-йил, 3-сон (133) С76-80.
4. Холмуродова Д.К Пути и методы получения порфиринов. International Journal of Education, Social Science. Volume-11 | 22-10-2023
5. Yusupova S.S. Holmurodova D.K. Kiyamova D.Sh. A New Source Of Biologically Active Substances Used In The National Economy And Medicine The american journal of medical sciences and pharmaceutical research 2020
6. С.С Юсупова, Д.К Холмуродова Лечебные свойства флавоноидов Биотехнология и биомедицинская инженерия, 2022 стр 255-256